

**MILLIY ARMIYA-YANGI O'ZBEKISTON TAYANCHI, OSOYISHTALIGIMIZ
KAFOLATI**

Qo'chqorov Sobirjon Ahadjonovich

*FarDU Harbiy ta'lif fakulteti boshlig'ining
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha o'rinnbosari,*

Uzakov Abduvali Ortiqovich

Maxsus tayyorgarlik sikli o'qituvchisi,

Qodirov Samandar Bobir o'g'li

Harbiy ta'lif fakulteti 1-bosqich kursanti.

Annotsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini tashkil etishini 32 yilligiga bag'ishlangan. Davlatning kuch-qudratini harbiy salohiyati va mudofaa darajasini uning armiyasi belgilaydi. 32 yilda mamlakatimiz Qurolli Kuchlarida amalga oshirilayotgan tub islohotlar tufayli tinchlik va osoyishtalikni barqaror taraqqiyotni ta'minlash vazifasini bajarayotgan milliy armiyamiz kuch-qudrati va salohiyati ortib bormoqda. Qisqa vaqtda tegishli vazirliklar, harbiy birlashmalar, qismlar, qo'shilmalar tuzilib O'zbekiston Respublikasi Prezident farmoniga ko'ra ularning vakolatlari belgilandi.*

Kalit so'zlar: *Qurolli Kuchlar, mudofaa, suverenitet Doktrina, islohotlar, salohiyat, harbiy sektor, professional, kadirlar, Nizom, Vazirlar Maxkamasi, konsepsiya ,qaror, ArMi-2022, To'maris, Jaloliddin Manguberdi, Temurbeklar maktabi, harbiy- vatanparvarlik .*

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng Davlatimiz milliy manfaatlarini, suverenitetini, xududiy yaxlitligini hamda aholini tinch hayotini himoya qilish tashqi qurolli tajovuzlar va mojarolarni oldini olish uchun O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini tashkil etish muhim sifatlardan biri edi. Qisqa vaqtda tegishli vazirliklar, harbiy birlashmalar ,qismlar,qo'shilmalar tuzilib prezident farmoniga ko'ra ularning vakolatlari belgilandi.Tizimdag'i aniq pozitsiyani belgilash, huquqiy normalarni tartibga solish borasida "Mudofaa to'g'risida"gi qonun Mudofaa doktrinasi kabi qonun hujjatlari va tegishli nizomlar ishlab chiqildi.

Davlatning kuch -qudratini harbiy salohiyati va mudofaa darajasini uning armiyasi belgilaydi. So'ngi yillarda mamlakatimiz Qurolli Kuchlarida amalga oshirilayotgan tub islohotlar tufayli tinchlik va osoyishtalikni barqaror taraqqiyotni ta'minlash vazifasini bajarayotgan milliy armiyamiz kuch-qudrati va salohiyati ortib bormoqda, Mudofaa sohasida jangovor salohiyatni oshirish bo'yicha juda katta ishlar amalga oshirilmoqda jumladan: Harbiy ma'muriy sektorlarni tuzilganligi, qo'shin turlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni taminlanishi, tezkor vazifalarni bajaruvchi bo'limmalarni tashkil etilildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi PQ-4375-son qaroriga muvofiq "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseylari uchun belgilangan talablar litseyga, jumladan, mehnatga haq to'lash shartlari va oshirilgan lavozim maoshlari miqdorlari, ustama to'lovlar, boshqa kafolat, huquq va imtiyozlar litseyning tegishlicha rahbar va pedagog xodimlari, ishchi va xizmatchilar, harbiy xizmatchilar va o'quvchilariga nisbatan tatbiq etildi.

Temurbeklar maktablar tashkil etilgani, professional kadirlar tayyorlash maskanlari barpo etilishi va eng muhimi Qurolli Kuchlar qudratini oshirish Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini ustivor yo'naliishlardan biri etib belgilanishi, Mudofaa sohasida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash asosiy va muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olgan holda Vazirlar Mahkamasining 2023-yildagi 591-qaroriga asosan. "Ta'lif muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom"ni qayta qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritib yangitdan ishlab chiqilishi, aynan shu yili

Vazirlar Mahkamasining 267-sonli qaroriga asosan “Yoshlarni harbiy- vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish” konsepsiyasini ishlab chiqilishi natijasida o’sib kelayotgan yoshlarni o’rtasida harbiy xizmatga qiziqishni har qachongidan kuchaytirdi.

Milliy armiyamiz yuksalishida o’zining tinimsiz mashg’ulotlari bilan yuksak kasbiy tayyorgarlikka ega bo’layotgan harbiy xizmatchilarimiz O’zbekiston armiyasini Xalqaro maydonda nelarga qodir ekanligini amalda namoyon etib kelmoqda. Buning misoli etib Xalqaro armiya o’yinlaridagi ishtirokini aytishimiz mumkin O’zbekistonning Mudofaa Vazirligi Vlll-Xalqaro armiya o’yinlarining 21 ta yo’nalishida 257 ta jamoalar o’rtasida o’zaro bellashib “ArMi-2022” Xalqaro armiya o’yinlarida harbiy xizmatchilarimiz umumjahon hisobida 2-o’rinni qo’lga kiritdi. Ushbu natija bilan Milliy armiyamizning kuch-qudrati, harbiy xizmatchilarining jangovor shayligi bir so’z bilan aytganda o’z kasbining ustalari ekanligini namoyon etdilar. Harbiy xizmatchilarini rag’batlantirish bo’yicha ham bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda jumladan Qurolli Kuchlar tizimida xizmat qilayotgan har tomonlama munosib, vatanparvar harbiy ayollar va ishchi xodimlarni taqdirlash uchun Prezident qaroriga ko’ra “To’maris” ko’krak nishoni ta’sis etildi.

So’nggi yillarda mamlakatimizda Qurolli Kuchlar tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi va bu borada Mudofaa vazirligi tizimi uchun malakali kadrlarni maqsadli tayyorlashni yanada takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatimiz va millatimiz faxri, jasur sarkarda, milliy qahramon Jaloliddin Manguberdining hayoti, tariximizdagi o’chmas jasorati yosh avlodlarimiz uchun o’ziga xos namuna bo’lib, maskuraviy immunitetni mustahkamlashda muhim ma’naviy qalqon vazifasini o’tab kelmoqda.

Yoshlarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, ma’naviy-axloqiy va harbiy-vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini yanada rivojlantirish hamda har tomonlama qo’llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni izchil davom ettirish maqsadida Mudofaa vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Xorazm viloyati hokimligining Mudofaa vazirligi tarkibida davlat muassasasi shaklida Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyini tashkil etildi.

Bunday isloxtarlarning Qurolli Kuchlarimiz salohiyatini yanada kuchaytirishdagi ahamiyati katta albatta. Qolaversa bu kabi keng ko’lamli chora-tadbirlar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o’zining katta hissasini qo’shamoqda. Bu esa xalqimiz tinch hayoti , chegaralarimiz daxlsizligi, mamlakat suverenitetini taminlashga barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: “O’zbekiston”, 2017. - 488 b.
2. Sh.M. Mirziyoyev Yerkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo yetamiz. “O’zbekiston” HMIU. 2016 y.
3. Sh.M. Mirziyoyev Qonun ustivorligi va inson maanfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O’zbekiston” HMIU, 2016 y.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PQ-184-son qarori.
5. Mansurjonovich, M. B., & Axadjonovich, Q. C. S. (2022). BO’LAJAK HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY MOSLASHUVCHANLIKNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. Pedagogical Sciences And Teaching Methods, 2(17), 176-179.

6. QO'CHQOROV S., & AZAMATOV, J. A. (2022). TA'LIM-TARBIYA TIZIMI TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHI. SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 1(4), 200-204.
7. QO'CHQOROV S. (2022). YANGI PEDAGOGIK TEXOLOGIYALAR. O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(11), 375-377.
8. Аҳаджонович, Қ. С. (2023). “ЁШЛАРНИ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ” КОНСЕПСИЯСИ ВА УНИНГ ЁШЛАР ТАРБИЯСИДАГИ ЎРНИ. О'ЗБЕKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18), 1041-1044.
9. Аҳаджонович, Қ. С. (2022). БЎЛҒУСИ ҲАРБИЙ МУТАХАССИСЛАРИДА ВАТАНГА ФИДОИЙЛИК ТУШУНЧАЛАРИНИ СИНГДИРИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ. PEDAGOG, 5(6), 731-750.
10. Xakimovich, J. B., & Axadjonovich, Q. S. (2022). VATANPARVARLIK. O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(13), 723-726.
11. Mansurjonovich, M. B., & Axadjonovich, Q. C. S. (2022). HARBIY PEDOGOGIKA VA HARBIY PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH MASALALARI. O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(13), 744-749.
12. Қўчқоров, С. (2022). ЯНГИ ПЕДАГОГИК ТЕХОЛОГИЯЛАР. O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(11), 375-377.